

O`ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISHNING KELAJAK ISTIQBOLLARI

Sultonova Nurxon Anvarovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti

Mamasoliyeva Ozoda Valiyeva Xosiyatxon

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabalar

Annotatsiya: Maqolada O`zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoiy rivojlanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limga teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'limga xizmatlarini rivojlanirish borasida olib borilayotgan va rejalashtirilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'limga, davlat siyosati, konsepsiya, rivojlanish, sohalar, MTT, tizim, bola qamrab olish, innovatsiya, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

O`zbekistonda maktabgacha ta'limga sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'limga bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'limga tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan.

Bugungi kunda respublikada jami 29 420 ta maktabgacha ta'limga tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Maktabgacha yoshdagi 2,9 mln nafar boladan 2,1 mln nafari yoki 71,8 foizi maktabgacha ta'limga qamrab olingan bo'lsa, ularning 647 655 nafarini (90%) 6 yoshli bolalar tashkil etmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag'i "O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limga teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'limga xizmatlarini rivojlanirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'limga tizimini rivojlanirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Maktabgacha ta'limga tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobjiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'naliishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'limga tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

2023 yil davomida davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi 1 ming 600 ta nodavlat hamda oilaviy maktabgacha ta'limga tashkilotlari tashkil etish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Jahon banki mablag'lari hisobidan 35 ta jihozlangan avtobuslar negizida 70 ta mahallada 140 ta "Aqlvoy" mobil guruhlari faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

8 mingta nodavlat maktabgacha ta'limga tashkilotlari davlat budjeti mablag'lari hisobidan 23 nomdag'i o'quv-uslubiy va didaktik materiallar bilan ta'minlanadi. 6 yoshli bolalar ta'limga ehtiyoj mavjud bo'lgan hududlarni ota-onalar talablariga binoan aniqlash maqsadida maxsus elektron platforma ishlab chiqish belgilangan. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'limga va

tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo`g`in hisoblangan maktabgacha ta`lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o`rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangiyangi zamonaviy maktabgacha ta`lim tashkilotlari barpo etilyapti.

Maktabgacha ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta`lim bilan bosqichma-bosqich to`liq qamrab olishni ta`minlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Maktabgacha ta`lim agentligi xabariga ko`ra, bolalarning maktabgacha ta`lim bilan qamrov darajasi 2017 yilga nisbatan (27,7 foiz) 2,5 barobarga, ya`ni 71,8 foizga, maktabgacha ta`lim tashkilotlari soni 5211 tadan 29420 taga yetkazilgan. 2023 yil oxiriga qadar 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta`lim tashkilotlariga qamrab olish darajasini 74,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 6 598 ta davlat (shundan, 49 ta idoralarga qarashli), 833 ta xususiy, 1 313 ta DXSH asosidagi nodavlat va 20 676 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlari faoliyati yo`lga qo`yilgan¹.

Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiyligi, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo`naltirilgan maxsus davlat ta`lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta`lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o`rta maxsus ma`lumotga ega bo`lib, bolalarni maktab ta`limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida»gi qarori misolida ko`rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta`limdan teng foydalanishini ta`minlash, maktabgacha ta`lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so`z bilan aytganda, maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo`lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berildi.

Konsepsiya tasdiqlangandan so`ng o`tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta`lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihibarlar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2019 yilda «Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Konsepsiya 2030 yilgacha 3-7 yoshdagagi bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta`lim bilan qamrab olinishining ta`minlanishi ko`zda tutilgan. Xususan, 2021 yilda yangi maktabgacha ta`lim tashkilotlari binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, bir paytlar bog`cha bo`lgan binolarni qayta Maktabgacha ta`lim vazirligi hisobiga qaytarish, maktabgacha ta`limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobjiy o`zgarishlar kuzatilmoqda. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo`nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta`lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta`minlash, internet tarmog`iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoxda.

Qabul qilingan maktabgacha ta`lim tizimini rivojlantirishda quydagilar eng muhim vazifar hisoblanadi: birinchidan, mazkur hujjatda erishilgan natijalarining o`lchanishini ta`minlaydigan aniq, maqsadli ko`rsatkichlar belgilangan. Xususan, 2030 yilgacha maktabgacha ta`lim bilan qamrab olingan

bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo`yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta`lim tashkilotlari quvvatlarining kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2030 yilga kelib - 132,3% ga ortadi, hamda davlat 135 xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun aktual bo`lgan muqobil maktabgacha ta`lim shakllari rivojlantiriladi.

¹ Болаларнинг мактабгача таълим билан қамров даражаси маълум бўлди (kun.uz)

Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlashda, qayta tayyorlashda, malakasini oshirishda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etildi. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko`rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi, hamda ushbu natijalarga erishish uchun pul mablag`larining zarurligi to`g`risidagi hisob-kitoblar bilan asoslantirildi. Qabul qilingan Konsepsiaga ko`ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari quyidagilardir:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish Maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish, MTT tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish "Ilk qadam" davlat dasturini va inklyuziv ta'limni keng miqyosda tatbiq etish, o'quv materiallarini ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning bog'liqlilagini ta'minlash;
- qamrovni orttirish, bolalarning sifatlari maktabgacha ta'lim olishlari uchun teng huquqlikni ta'minlash, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish yangi MTTlarni qurish va eskilarini rekonstruksiya qilish, bepul bir yillik maktabga tayyogarlikni keng miqyosda tatbiq etish, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini rivojlantirish, respublikadagi barcha MTTlarni kommunal xizmatlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash;
- innovatsiyalarini, ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish axborot ma'lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta'limi va ota-onalarning ma'lumot olishi uchun raqamli ta'lim resurslarini tatbiq etish, respublikaning barcha MTTlarini kompyuterlar bilan ta'minlanishini va Internet tarmog'iga ulanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning shaffofligini va samaradorligini ta'minlash (samarali monitoring mexanizmlarni yaratish, manfaatdor shaxslarga ma'lumotlarni taqdim etish, muomalalar bilan ishslash tizimini takomillashtirish, chet el investitsiyalarini va grantlarini jalb qilish, me'yoriy kishi boshiga moliyalashtirishni birin-kekin tatbiq etish);

Yuqoridaqidlardan kelib chiqib biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bolalarni Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish markazlarini tashkil etish davlat va ijtimoiy buyurtmaning eng muhim yo`nalishlaridan biridir. Lekin maktabgacha ta'lim tashkilotlari Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari asosida rivojlantirish markazlarini tashkil etish sohada talablari darajasida qarashni taqoza etadi.
2. Bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bolalar qo`yiladigan Davlat talablari asosida rivojlantirish markazlarini tashkil etish.
4. Ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'minlandi.
5. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish qo`yiladigan Davlat talablari asosida rivojlantirish markazlarini tashkil etish shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanish zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta`lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3955-sonli qarori.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi RQ-4312-sonli qarori.
3. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagি bolalarni rivojlantiriga qo`yiladigan Davlat talablari. –T., 2018.
4. Bakhodirovna, Muminova Gulasal, and Qurbanova Ruxshona. "THE IMPORTANCE OF PRESCHOOL EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 78-82.*
5. Bakhodirovna, Muminova Gulasal, and Qurbanova Ruxshona. "THE IMPORTANCE OF PRESCHOOL EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF UZBEKISTAN." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 78-82.*
6. Malikovna, Nazirova Gozal. "Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o`rni." *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 1.2 (2023): 100-105.*

